



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TILLAR FAKULTETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

**FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI
BOSQICHI:
ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA
ISTIQBOLLAR**

II AN'ANAVIY XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2024-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2024

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|---------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Sh.N. Murodov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | R.A. Saidova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, a'zo; |
| 7. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 10. | S.X.Maxmudova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 12. | D.B.Ahmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 13. | S.N. Kenjayev | - Tillar fakulteti dekan o'rinbosari, a'zo; |
| 14. | N.A.Bafojeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|--|
| 1. | H.T. Artikova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais; |
| 2. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, rais muovini; |
| 3. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 4. | R.A. Saidova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, a'zo; |
| 5. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 6. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 7. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 8. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 9. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh. Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | H.A. Ubaydova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo. |
| 16. | M.Y. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 39-son bayoni 20-bandi birinchi xatboshisida belgilangan 2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi topshirig'i, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi 2024-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida 76-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Buxoro davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti O'zbek va rus tillari kafedrasida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi II an'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

L.F.Sharipova - filologiya fanlari doktori, dotsent

M.I.Davronova - filologiya fanlari doktori, professori

butun zaminni Vatan deb bildi. “Kuzgi yer ko‘rinishi” she‘rini o‘qib, shoirning holatini his qilasz: Kuz. Xazon.Hosili yig‘ilgan yerda sarg‘aygan maysalarga bag‘rini berib yotgan lirik qahramon kuzakning parchasi go‘yo. Shoir kuzning oddiy manzarasi orqali mungli, ayni damda, umuminsoniy bir fikrni shuuridan o‘tkazadi: Nogoh sado keldi, Qalbing qa‘ridan: Intizor turibdi poyonsiz olam, Maysamni hidlama, Ichma suvimni, Sarg‘aygan bag‘rimda yotmagin, bolam. Bu Yerning o‘tinchi. Bu o‘tinchni she‘rxonga yetkazishdan oldin shoir yerni shunday ta‘riflaydi: “Qurigan bahaybat yaproqdir yerim”, “giyohvand yerim”. Lirik qahramon dorilardan zaharlangan ona tuprog‘ining giyohvand holga kelganini aytish bilan O‘zbekiston yerlarining 70-80-yillardagi ahvoliga ishora qiladi. Lirik qahramon ona tuproq “bag‘riga bag‘rini berib”, “jannatliy giyohlarni, rang-barang chechaklar, qushlar, sitoralar, saratonlarni” xotirlab yotganida yer qalbi qa‘ridan sado keladi. Yer “sarg‘aygan bag‘rimda yotma” desa ham lirik qahramon – yerning “o‘jar bolasi”, “osmonga yetmasdan yer bag‘riga gup etib tushgan nolasi” ona tuproqdan ketib bo‘lmasligini aytadi. Lirik qahramonning o‘g‘li uning bag‘riga kelib yotadi. “Dunyolar go‘zal, kimsasiz bag‘rimda yotmagin” deb o‘g‘liga aytsa-da, o‘g‘li o‘zidan ham o‘jar, u otasining bag‘riga qattiqroq yopishadi: Yotibmiz, yerimning qoq o‘rtasida, yotibmiz yerimning parchalariday, tinimsiz chorlasa hamki yulduzlar – o‘zga dunyolarning darichalari... Dunyo dialektikasini chuqur anglagan shoirgina shunday yoza oladi. Vatanini yurakdan sevgan shoirgina shunday satrlarni bitadi. Shavkat Rahmon ruhi ozod, dili obod shoir edi. Ammo erksiz yashayotgan elining dardi isyonga chorlar, shu isyon she‘riyatiga ko‘chgan, isyonkor she‘riyati xalqimizni g‘aflat uyqusidan uyg‘otishga xizmat qila olgan edi. Adabiyotshunos olim O.Sharafiddinov shunday yozadi: “Shavkat she‘rlarida Kun va Tun, Nur va Zulmat, Ziyoy va Qorong‘ilik obrazlari ko‘p uchraydi. Bular mavhum romantik obrazlar emas, balki real hayotiy mazmunga to‘la obrazlardir”. Bu obrazlar, avvalo, shoir obrazi ko‘magida reallashgan. Shavkat Rahmon she‘riyatida shoir obrazi keng qo‘llangan. Bunga sabab ham bor. Ko‘ksingdagi Muqqana bilan O‘zligingga qaradingmi, ayt? Musht zarurroq bo‘lgan mahalda Yozding go‘zal she‘rlarni faqat. Lirik qahramon – shoir. Uning ko‘ksida Muqanna bor. Muqanna dushmanga isyon qilgan, erk istagan qahramon. Bu obraz orqali shoir o‘zini tanqid qilmoqda. Keyingi satrlarda bu aniq ifodalangan. Shavkat Rahmon so‘zi o‘ziga, o‘zi so‘ziga monand shoir ekanini uning ijodi haqida yozgan har bir tadqiqotchi ta‘kidlaydi. Aslida shoir ijodi haqida yozganlar anchagina-yu, tadqiqot olib borganlar kam. mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman “Shavkat Rahmonni xotirlab” kitobida shoirlar, jurnalistlar, noshirlarning xotiralari, yodnomalari, shuningdek, Bahodir Karim, Ulug‘bek Hamdam singari olimlarning o‘ziga xos tahlillari bor. Shoirning shaxsi va ijodida mutanosiblik borligi haqida tadqiqotchi Nurulloh Muhammad Raufxon yozadi: “Shavkat Rahmonni umrida ko‘rmagan kishi she‘rlarida uning ichki va tashqi suratini osongina chiza oladi. Ishoning, ikki tomchi suvday bir xil chiqadi, g‘irt o‘xshaydi, qo‘yib qo‘yganday o‘zi bo‘ladi! Men Shavkat Rahmonning shaxsiyatini ham, she‘riyatini ham shuning uchun yaxshi ko‘raman”. Ko‘rinadiki, shoirning yetuk

fazilatlarga ega ekanini, vatanparvarligini hamma e'tirof qilgan. XX asrning 70-80-yillari she'riyati obrazlarga boyligi, uslubi rang-barang shoirlar ijod qilgani bilan boshqa davrlardan farq qiladi. Bu shoirlar orasida Shavkat Rahmon she'riyati alohida ajralib turadi. Adabiyotshunos Bahodir Karim o'z maqolasida Shavkat Rahmon she'riyatiga ta'rif berar ekan, shunday izohlaydi: "Shavkat Rahmon qisqa umr ko'rdi. Ammo undan "O'zbekning qorako'z bolalariga" olmosday keskir, tog'dek mustahkam, har biri yuzta umriga yetadigan ezgu, boqiy va o'tkir so'z qoldi". Shoir she'riyati obrazlar olami juda keng edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Rahmon. Saylanma. – Toshkent: Sharq NMK, 1997. – 384 b.
2. Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab. – Toshkent: Movarounnahr, 2012.
3. Shirinova A. Shavkat Rahmon she'riyati obrazlar ko'lami. 2020-yil 24-26-dekabr. – Toshkent: TURON-IQBOL, 2021. – B.247-250.
4. Shirinova A. Shavkat Rahmon she'r va shoirlik haqida // "Yangi O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim" jurnali, 2021-yil 20-may. №3-son. – B.120-124.
5. Shavkat Rahmon. Uyg'oq tog'lar. – T.: G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1986. – B. 47

"SO'Z LATOFATI"NING AJIB SIRLARI

Avazova Nilufar Oqiljon qizi,
BuxDPI Tillar fakulteti o'qituvchisi
Azadova Barchinoy Bodil qizi,
BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek shoiri, O'zbekiston Qahramoni, zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri Erkin Vohidov ijodining o'ziga xos tomonlarini ko'rsatib bergan asar "So'z latofati" kitobining ayrim jihatlari, so'zlarning nozik qirraliligi, bu kitobning barcha uchun birdek sevimli adabiyotlardan ekanligi misollar va turli dalillashlar orqali ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Poetik tafakkur, iste'dod, so'z nozikliklari, ona vatan, ona tili, davlat tili, badiiy, ilmiy, rasmiy til

Erkin Vohidov – o'zbek shoiri, dramaturgi, adabiy tarjimoni va davlat arbobi. Shoirni g'azal janrining chinakam davomchisi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Vatanga, uning cheksiz kengligiga muhabbat, ona diyorning porloq kelajagiga ishonch Erkin Vohidov ijodining eng muhim jihatidir. U poetik tafakkuri g'oyat keng va tiniq shoirdir. Iste'dodning urug'i ko'p bo'lmaydi. Shu bois iste'dod noyob va yuksak bo'ladi. Chunonchi, "Iste'dod shunday bir gavharki, u dengiz tubida sadaf, ichida ham gavhar, iste'dod shunday bir zilol irmoqki, uning har qatrasida daryolarning qudrati, ummonlarning teranligi bor, iste'dod shunday bir gulki, uning har bir ochilmagan g'unchasida chamanlarning

bo'yi va tarovati bor" [Vohidov E. "So'z latofati". Toshkent – O'zbekiston. 2018]. Shoir ham xuddi shunday noyob iste'dod sohiblaridan biri hisoblanadi. "So'z latofati" asari esa iste'dodining yorqin namunalaridandir. Atoqli shoir va yozuvchi Erkin Vohidovning "So'z latofati" nomli kitobiga ustoz ijodkorning milliy adabiyot va ona tilimiz xususida kuyinchaklik bilan yozgan maqolalari kiritilgan.

"So'z latofati" asari nasriy asarlar to'plami bo'lib, asarga adibning maqola va risolalari kiritilgan. O'z nomi bilan ko'rinib turibdiki asar milliy adabiyotimiz va ona tilimiz haqida qisqa qilib aytganda so'zning latofati haqida boradi. Ilk marotaba asar 2014-yil Toshkent shahrida O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyotida chop etilgan. 2018-yilda esa, xuddi shu nashriyotda kitobning to'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri chop etilgan. To'plamga shoir o'zbek tili mavzusida turli yillar davomida yozgan maqolalar va risolalar kiritilgan. Xususan, to'plamdan Vohidov o'zbek tili grammatikasidagi qiyinchiliklar haqida yozgan satrlar o'rin egallagan.

"So'z latofati" asaridan parchalar. Olamni oxirigacha anglab bo'lmagandek, So'zning ham tubiga yetish imkonsizdir. Biz ko'zlamok, ko'zikmok, ko'zguning ko'zdan kelib chiqishini bilamiz, lekin ko'z nima sababdan ko'z deyilganini, nega uni birov ayn, birov chashm, birov glaz, birov ay deb atashini bilmaymiz. Nega toshni bizning ajdod tosh degan, boshqalar xajar, sang, kamen', stoun, shtayn ataganlar, bu yuzlab nomlar qaerdan kelgan, bilolmaymiz. Biz faqat farazlar qilamiz, asil haqiqat esa sirlar ummoni tubida yotibdi. Lekin baribir tinchimas idrok egasi bo'lgan odamzod g'avvos bo'lib bu ummon ostini kezadi, kashfiyotlar qiladi va kashfiyotlari ham cheksizdir.

Xunuk degan so'zni biz ko'rksiz, badbashara deb tushunamiz. Aslida bu so'z sovuq degani. Tashqari xunuk, issiq kiyinib ol, desak to'g'ri bo'ladi. Lekin bunday deb aytsak kulgi bo'lamiz. Ajabo, sovuq ma'nosidagi so'z qanday qilib ko'rksizga aylandi? Bunga ham sabab – qisqartirishga o'chligimiz. Avvalda uni sovuq ma'nosida to'g'ri ishlatganmiz. Turqi sovuq odamni turqi xunuk deganmiz. Keyincha turq tushib qoldi, xunukning o'zini aytadigan bo'ldik.

Zarif inson so'zning qadriga yetadi. So'zning mag'zini chaqib, tub ildizini – ko'kini qidiradi. Insonni ulug'laydigan, uni qaro yerdan osmoni falakka ko'taruvchi fazilat bahramandlikdir. O'z ona tilini sevmagan, til kechmishida yotgan tarixni bilmagan, qiziqmagan inson barkamol sanalmas. U kim, qaysi yurt va qaysi millatga mansub ekanidan, o'z ona tilining boy-u kambag'alligi, mayin va dag'alligidan qat'i nazar o'z tiling o'z vataningdek aziz, o'z onangdek tabarrukdir.

Erkin Vohidov bu asarda so'zning qadr-qimmatini, uning mavqeyini, turli xil so'zlarning ma'nolari, ularning qayerda, qay shaklda ishlatilishi, so'z nozikliklari, ona tilimizning eng boy, go'zal va barkamol til ekanligini ko'rsatib beradi. Asardagi "Ona tilim" sarlavhasi ostidagi qismida shunday fikrlar bildirilgan: "Til fidoyilari, qayerdasiz? Tarixiy sana – 1989-yil 21-oktabr kuni o'zbek tili yurtimizda Davlat tili maqomiga ega bo'ldi. Hali Sho'ro davlati qudratda bo'lgan zamonda sodir bo'lgan bu unutilmas hodisa – istiqloq

bahorining ilk g'unchasi – ilm ahli, ijod ahli uchun chinakam bayram edi. Qalblarimiz nurlandi, do'ppini osmonga ottik va ... hotirjam bo'ldik. Vaholanki, tilga Davlat maqomining berilishi uzoq yillar davom etadigan, barcha kasb egalarining safarbarligini, ayniqsa, ziyolilarning tinimsiz mehnatlarini talab qiladigan umummilliy jarayonning boshlanishi bo'lgan edi. O'sha qaltis va shukuhli yillarning jo'shqin bahslariga, jonbozliklarga shohid bo'lgan bir qalamkash sifatida bugun afsus va o'kinch bilan o'ylayman: ona tilimiz fidoyilari qanilar? Har yili 21-oktabrni tabarruk kunday nishonlashimiz, til bayramlarini o'tkazishimiz durust. Lekin ona tilimizni boyitish, atamalar ustida ishlash, chet tillaridan kirgan so'z va terminlarga munosib o'zbek so'zlarini topish ustida g'ayrat va jonbozlik hali yetarli darajada emas. Tilshunos olimlarimiz, tarjimonlarimiz, ayniqsa, ijodkorlar oldida ulkan vazifalar bor. Tilimizning Navoiy zamonidagi qudratini tiklash; badiiy, ilmiy, rasmiy til boyligi uchun astoydil jon koyitishimiz kerak. Ushbu ko'lamli mehnat Vazirlar Mahkamasi qoshida tuzilgan Atamalar qo'mitasi yoki Fanlar akademiyasining o'zi amalga oshiradigan ish emas. Tilimizni chinakam davlat tiliga aylantirish hammamiz va har birimizning, "men o'zbekman", - degan har bir insonning sharafligi va vazifasidir".

Erkin Vohidov asarlari shunchaki oddiy asarlar emas, ular Vatanga bo'lgan sadoqatni, ona tilimizga bo'lgan muhabbatni, milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatni ifodalaydi. She'rlari ko'nglimizga iliqlik, ruhimizga tetiklik va fikrimizga teranlik bag'ishlaydi. Shuning uchun ham Erkin Vohidov doimo xalqimizning suyukli shoiri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avazova N., Jalilova O. ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANIDAGI AYRIM OBRAZLAR TAVSIFI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 20-24.
 2. Jo'rayeva L. ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI KIYIM NOMLARINING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTROLOGIK TADQIQI //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 124-127.
 3. Nilufar A. G'IJDUVON SHEVASIDAGI AYRIM SO'ZLARINING "DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARIDA IFODALANISHI //UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 219-225.
 4. Vohidov E. "So'z latofati". Toshkent – O'zbekiston. 2018.
- Internet saytlari:
1. www.ziyouz.com
 2. www.kh-davron.uz

Nurova Firuza Kamolovna RAVISHDOSHLI SO'Z BIRIKMASI HAMDA KO'MAKCHI FE'LLI SO'Z QO'SHILMASINI FARQLASH MODELI.....	54
Nurova Firuza Kamolovna, Aslonova Sarvinoz FE'L+FE'L TARKIBLI QO'SHMA FE'L VA KO'MAKCHI FE'LLI SO'Z QO'SHILMASINING O'ZARO FARQLANISHI BADIY ASARLARDAGI MISOLLAR TALQINIDA.....	57
Qiyomova Mohinabonu TILLARNING TARAQQIYOT OMILLARI: ICHKI VA TASHQI OMILLAR.....	61
Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna ELLIPTIK GAP NUTQNING MAXSUS BIRLIGI SIFATIDA.....	64
Saydullayeva O'g'iloy "RAVISHDOSH + FE'L" KO'RINISHLI SO'Z BIRIKMASI VA KO'MAKCHILI FE'LLI SO'Z QO'SHILMASINI FARQLASH MODELI.....	68
Тажибаева Жыпаргул Жамшитовна КЕМТИК СҮЙЛӨМДӨРДҮН ТҮРЛӨРҮ, АЛАРДЫН КЫРГЫЗ ДРАМАЛАРЫНДА КОЛДОНУЛУШУ.....	70
Tilavova Munisxon Alijon qizi, TOHIR MALIKNING „ODAMIYLIK MULKI “ASARIDAGI AYRIM SINONIMIK BIRLIKLARNING MOHIYATI.....	76
Ubaydova H.A. MAQOLLARDA ICHKI ANTONIMIYANI YUZAGA Keltirgan LEKSEMALARNING TUZILISH JIHATDAN TASNIFI.....	82
Usmonova Mohinur Ulug'bek qizi TURKIY TILLARDA AMALIY TILSHUNOSLIK MASALALARI.....	84
Yusupboyeva Maftuna Umidjon qizi “ILDIZ” LEKSEMASINING HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA IFODALANISHI.....	88
Sharipova Dildora Rashitovna “MA'NAVIYAT” UMUMIY SEMALI BIRLIKLARNI SHAKLLANTIRUVCHI SINONIM AFFIKSLAR.....	90

II SHO'BA. ADABIYOTSHUNOSLIKDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Aliyeva Dilshoda Isajon SULTON ASARLARIDA MIFNING TUTGAN O'RNI.....	94
Aliyeva Orzigul SHAHKAT RAHMON IJODIDA ESTETIK QARASHLAR.....	97
Avazova Nilufar Oqiljon qizi, Azadova Barchinoy Bodil qizi “SO'Z LATOFATI”NING AJIB SIRLARI.....	99
Avazova Nilufar Oqiljon qizi, Fayzullayeva Farangis Anvar qizi ZAMONAVIY ADABIYOTIMIZDAGI AYRIM TO'RTLIKLAR BADIYATI.....	102
Erkinova Shahina Muhammad YUSUF SHE'RIYATIDA BADIY SAN'ATLARNING QO'LLANISHI.....	104
Farmonova Mohinur Nuriddin qizi, Qosimov Xudoyor Yunusovich IQBOL MIRZO SHE'RLARIDA QO'LLANGAN XALQ MAQOLLARINING BADIY AHAMIYATI.....	106
Gafurova Dilobar G'ayrataliyevna QAHRAMON XARAKTERINI YARATISHDA PORTRET DETALINING FUNKSIONAL AHAMIYATI.....	108
Hamidova Muhayyoxon OBIDOVNA SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODIDA OBRAZLAR TABIATI TAHLILI.....	111

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICHI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

II AN'ANAVIY XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2024-yil, 21-OKTABR

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi 76-sonli buyrug'iga asosan chop etishga ruxsat etildi

Cambria (Заголовки)garniturası,

19-shartli bosma taboq, soni 20 nusxa.

Muhammad To'ra bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Buxoro shahar Mustaqillik ko'chasi 28 uy

E-mail: ya.duna2012@yandex.ru duna_poligraf@bk.ru